

og'irligi taxminan 2 kg bo'lgan. Zamonaviy soyabonlar tugma bosilganda avtomatik ravishda ochiladi. Buning uchun soyabonlar prujinali maxsus mexanizm bilan jihozlanadi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

Yana qanday yangi ma'lumotlarni bilib oldingiz?

Zamonaviy soyabonlar ilgari ixtiro qilinganlaridan qanday farq qilad?

Zamonaviy soyabon qanday ko'rinishda ekanligini eslang. Soyabon yasash uchun qanday materiallar kerak deb o'ylaysiz?

So'ngra o'quvchilar darslikning 21-sahifasidagi topshiriqni bajaradilar. O'qituvchi o'quvchilarga ikki guruhga bo'linishni taklif qiladi. Har bir jamoa "soyabon" so'zi bilan bog'liq sifatlarni iloji boricha ko'proq topishi kerak.

Amaliy qism (20 daqiqa).

O'quvchilar mustaqil ravishda namunani tahlil qiladilar, ish rejasini tuzadilar, videoni ko'rgandan so'ng yoki darslikdagi bosqichma-bosqich ko'rsatmalardan foydalangan holda topshiriqni bajaradilar. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

Yakuniy bosqich (5 daqiqa).

O'quvchilar o'z ishlarini o'zlari baholaydilar.

O'quvchilarga mustaqil tayyorgarlik sifatida keyingi darsning parrandachilik fermasi haqidagi nazariy qismi bilan tanishib chiqish tavsiya etilad.

7-8-darslar. Parrandachilik fermasi

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- loyihalash va obrazli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish qobiliyatini shakllantirish;
- tabiatga ehtiyotkorona munosabatni, qushlarga mehr-muhabbatni tarbiyalash, ekologik madaniyat asoslarini singdirish;
- muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish (juftlikda ishlash qobiliyati, faol tinglash ko'nikmalari, o'z fikrini ifodalay olish, muloqot olib borish, maqsad qo'yish va unga erishish qobiliyati);
- ozuqa idishini tayyorlash uchun qayta ishlangan materiallardan foydalanishda ijodiy tasavvur va fantaziyaning rivojlantirish.

Dars vazifalari:

- o'quvchilarda harakat algoritmi bo'yicha ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- o'z g'oyalarini ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirish;
- rejalashtirilgan natijaga erishish uchun jamoada faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirishni o'rgatish;
- qushlar uchun ozuqa idishini yasash;
- ishda aniqlik va sabrlikni o'stirish;
- mehnatsevarlik va tirishqoqlikni tarbiyalash;
- umumiy va nozik motorika ko'nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish.

1 soat.

Salomlashish (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni tekshiradi, shuningdek, o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarni faollashtiruvchi savollar beradi.

Nazariy qism (10 daqiqa).

O'qituvchi savollar yordamida o'quvchilar o'rtasida dars mavzusi bo'yicha muhokamani boshlab beradi:

Do'konlarga har kuni ko'p miqdorda yangi tuxumlar kelib tushadi.

Sizningcha, ular qayerdan kelib chiqadi?

Qanday uy parrandalarini bilasiz?

Tuxumdan tashqari tovuq parvarishidan odam qanday foyda oladi?

Sizningcha, tovuqlarni ko'paytirish murakkab jarayonmi?

Parrandachilik fermasida qanday kasb egalari ishlaydi?

Tuxum tovuqdan do'kongacha qanday yo'lni bosib o'tadi?

Amaliy qism (20 daqiqa).

O'qituvchi amaliy ishning maqsadi qushlar uchun ozuqa idishini yasashdan iborat ekanligini aytadi. Bu ish o'quvchilar tomonidan sinfdan tashqarida bajariladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib, o'zlariga yoqqan ozuqa idishi variantini tanlashlari yoki ozuqa idishi tayyorlashning o'z usullarini o'ylab topishlari kerak. Zaruriy shart - ozuqa idishi qayta ishlangan materialdan tayyorlanishi kerak.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

Qayta ishlangan material nima?

Qanday qayta ishlangan materiallarni bilasiz?

O'tgan yili darslarda qanday qayta ishlangan materiallar bilan ishladingiz?

Qayta ishlangan materialdan foydalanish qanday foyda keltiradi?

Qayta ishlangan materialdan tayyorlangan ozuqa idishi qushlarga qanday foyda keltirishi mumkin?

Darslikda qushlar uchun ozuqa idishlarining bir nechta variantlari, jumladan, bitta video yo'riqnoma keltirilgan.

O'quvchilarga guruhlariga birlashib, bajarishning qaysi variantini tanlashni muhokama qilish yoki o'z variantini o'ylab topish, ish rejasini tuzish va kerakli materiallarni tanlash uchun vaqt beriladi.

Yakuniy bosqich (5 daqiqa).

O'qituvchi har bir guruhga savollar beradi:

Ozuqa idishining o'z variantini o'ylab topdingizmi yoki darslikda keltirilganlaridan tanlab oldingizmi?

Nima uchun aynan shu variantni tanladingiz?

Sizga qanday materiallar kerak bo'ladi?

Reja tuzib bo'ldingizmi?

Sizningcha, keyingi darsgacha mana shu ozuqa idishini tayyorlashga vaqtingiz yetadimi?

O'qituvchi keyingi darsda har bir guruh o'quvchilari o'z ozuqa idishlarini namoyish etishlari kerakligini aytadi. Iloji boricha ozuqa idishlarini maktab hovlisidagi daraxtlarga yoki kattalar yordamida o'z hovlisidagi daraxtlarga joylashtirish kerak. O'qituvchi o'quvchilarga ozuqa idishi tayyorlash jarayoni haqida kichik video yoki fotolavha tayyorlashni tavsiya qiladi.

O'qituvchi ozuqa idishi quyidagi mezonlar bo'yicha baholanishi haqida o'quvchilarni ogohlantiradi: amaliylik, o'ziga xoslik, puxtalik, mustahkamlik, tashqi ko'rinish.

2-soat.

Salomlashish (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni tekshiradi, shuningdek, o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarni faollashtiruvchi savollar beradi.

Amaliy qism (30 daqiqa).

O'quvchilar qushlar uchun ozuqalarini namoyish etadilar va o'qituvchining savollariga javob beradilar:

Nima uchun oxurning aynan shu varianti tanlandi?

U qanday materialdan yasalgan?

Ish uchun qanday asboblari kerak bo'ldi?

Guruhda ish qanday taqsimlangan?

O'quvchilar o'zlarining videolari yoki fotolavhalarini, agar mavjud bo'lsa, namoyish etadilar.

Har bir guruh ishini namoyish qilgandan so'ng o'qituvchi sinfga savollar beradi:

Sizningcha, bu qush uyasi qanchalik qulay?
Bu qush uyasining ko'rinishi sizga yoqadimi?
Sizningcha, bu ish qanday bahoga loyiq?

Imkon boricha ozuqa uchun idishlar maktab hovlisidagi daraxtlarga o'rnatiladi.

Yakuniy bosqich (5 daqiqa).

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning har bir guruhiga baho qo'yadi.

O'qituvchi keyingi darsda bajarilishi kerak bo'lgan amaliy ish bilan tanishib chiqishni va keyingi darsda kerak bo'ladigan zarur materiallar ro'yxatini tuzishni taklif qiladi.

9-dars. Burama o'yinchoq

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- loyihalash va obrazli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish qobiliyatini shakllantirish.

Dars vazifalari:

- o'quvchilarda harakat algoritmi bo'yicha ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- mexanika va mexanizmlarni yasashga qiziqishni oshirish;
- harakatlanuvchi o'yinchoq tayyorlash;
- ish jarayonida tartiblilik va sabrlilikni rivojlantirish;
- mehnatsevarlik va tirishqoqlikni tarbiyalash;
- umumiy va mayda motorikani rivojlantirish hamda tuzatish.

Salomlashish (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni tekshiradi, shuningdek, o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarni jonlantiruvchi savollar beradi.

Nazariy qism (5 daqiqa).

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

O'yinchoqlar bilan o'ynashni yaxshi ko'rasizmi?

Qanday o'yinchoqlar sizga ko'proq yoqadi?

Harakatlana oladigan o'yinchoqlar sizni qiziqtiradimi?

Sizningcha, harakatlanadigan o'yinchoqlar qachon paydo bo'lgan?

Bu o'yinchoqlar qanday tuzilganini bilasizmi? O'zingiz harakatlanuvchi mexanizmli o'yinchoq yasashni xohlaysizmi?